

ISLOM SAVDO INSTRUMENTLARINI QO'LLASHDA XORIJ TAJRIBASIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'NALISHHLARI

Erminjonov Shahzodbek Erkinjon o'g'li
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islom iqtisodiyoti va moliyasi mutaxassisligi
2-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada islomiy moliya vositalari, xususan ijara muntahiya bit-tamlik va murobahaning iste'mol bozorini rivojlantirishdagi roli tahlil qilinadi. Avtomobil va maishiy texnika bozorida boshlang'ich to'lovsiz moliyalashtirish tizimlari orqali iste'mol imkoniyatlarini kengaytirish, xorijiy tajribalar asosida O'zbekistonda bu modelni tatbiq etish istiqbollari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, bojxona to'lovlarning iste'mol bozoriga ta'siri, islomiy moliya vositalari yordamida import xarajatlarini kamaytirish va narxlarni barqarorlashtirish yo'llari muhokama qilinadi. Mazkur yechimlar iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *Islomiy moliya, ijara muntahiya bit-tamlik, murobaha, iste'mol bozori, avtomobil moliyalashtirish, maishiy texnika, bojxona to'lovleri, import.*

Annotation: The article analyzes the role of Islamic finance instruments, particularly Ijara Muntahia Bittamleek and Murabaha, in developing the consumer market. It examines the expansion of consumer opportunities through financing systems without initial payments in the automobile and home appliance markets, and considers the prospects of implementing this model in Uzbekistan based on foreign experience. Additionally, the impact of customs duties on the consumer market, ways to reduce import costs, and stabilize prices using Islamic finance tools are discussed. These solutions contribute to economic growth and social stability.

Keywords: *Islamic finance, Ijara Muntahia Bittamleek, Murabaha, consumer market, automobile financing, home appliances, customs duties, import.*

Ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlar o'zgarayotgan bugungi kunda, ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar iste'mol bozorini rivojlantirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun islomiy savdo instrumentlariga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqmoqdalar.¹ Islom moliyasining asosiy tamoyillari, jumladan ribosiz va g'ararsiz operatsiyalar amalga oshirish, moliyaviy xizmatlardan foydalanishning yangi imkoniyatlarini yaratadi. Boshqa tomondan, iste'mol bozorining kengayishi va aholining turli ijtimoiy qatlamlarining moliyaviy xizmatlarga

¹ Siddiqi, M.N.Islamic Banking:Theory and Practice.Jeddah: Islamic Research and Training Institute, 2001. – 123 b.

kirish imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar kerak. Ushbu bo‘limda avtomobil va maishiy texnikalarni boshlang‘ich to‘lovlarsiz ijara muntahiya bit-tamlik asosida joriy etish orqali bozor hajmini oshirish masalasi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, xorijiy tajriba va ularning ijobiy natijalari asosida o‘zbek sharoitida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan takliflar ishlab chiqiladi.

Ijara muntahiya bit-tamlik – islomiy moliya tizimining ajralmas qismi bo‘lib, bu moliyalashtirish modelida tovarni ma’lum muddatga ijaraga berish va muddat tugagach, uning to‘liq egasiga aylanishi nazarda tutiladi. Ijara tizimining afzallikkari juda ko‘p. Birinchi navbatda, foydalanuvchi tovarni sotib olishga imkoniyat bo‘lmasa ham, undan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, bu tizim, moliyaviy tashkilotlarning tovarga bo‘lgan mulk huquqini saqlab qolishini ta’minlab, riski va xavf-xatarlarni boshqarishda yordam beradi. Moliyaviy xizmatlar odatda foiz asosida ishlab chiqilgan bo‘lsa, islomiy moliya vositalari foizsiz, har ikki tomon uchun foydali, shaffof va ijtimoiy mas’uliyatli tizimni yaratadi.

Bunday tizimda maishiy texnika va avtomobillarni boshlang‘ich to‘lovlarsiz sotishning eng katta afzalligi shundaki, xaridorlar faqatgina ijara to‘lovlarini amalgga oshirib, o‘zlariga zarur bo‘lgan mahsulotni foydalanishlari mumkin. Bu esa ko‘plab oilalar uchun imkoniyatlarni kengaytiradi va mavjud xarid imkoniyatlarini taqdim etadi. Shuningdek, islomiy ijara asosidagi moliyalashtirish tizimi, iste’mol bozorining barqaror rivojlanishiga turtki bo‘lib, bozor hajmining oshishiga yordam beradi.

Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, islomiy moliya vositalari orqali amalgga oshirilgan moliyalashtirish tizimlari bozorda o‘z o‘rnini topgan. Masalan, Pokistonda islomiy moliyalashtirish orqali avtomobil sotish va maishiy texnikalarni ijara muntahiya bit-tamlik asosida sotish tizimi juda yaxshi natijalar ko‘rsatdi. 2022-yilda Pokistonda ijara asosida sotilgan avtomobillar soni 34 mingni tashkil etgan bo‘lib, bu raqam 2018-yilda 12 ming edi, ya’ni o‘sish sur’ati 183% ni tashkil etdi.² Bu o‘sish asosiy omillardan biri sifatida islomiy moliya vositalarining tobora kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Islomiy moliya orqali avtomobil sotuvlarining o‘sishiga eng katta ta’sir qilgan omil bu — boshlang‘ich to‘lovlarning yo‘qligi va muddatli to‘lovlar. Bunday tizimda xaridorlar daromadlari past bo‘lsa ham o‘z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shuningdek, Indoneziyada ham islomiy moliyalashtirish tizimlari muvaffaqiyatli tatbiq etilmogda. 2020-yilda Indoneziyaning maishiy texnika bozorida 150 mingdan ortiq oila to‘liq islomiy moliya vositalari asosida televizor, muzlatgich, kir yuvish mashinalari va boshqa maishiy texnikalarni xarid qilgan.³ Bu tizimda ham boshlang‘ich to‘lov yo‘qligi va muddatli to‘lovlar imkoniyati taqdim etilgan, natijada

² State Bank of Pakistan. **Islamic Banking Bulletin – December 2022.** – Karachi, 2023. – 28 b.

³ Financial Services Authority of Indonesia (OJK). **Sharia Finance Development Report 2020.** – Jakarta: OJK, 2021. – 75 b.

ko‘plab o‘rtacha daromadli oilalar moliyaviy xizmatlardan foydalanganlar. Shuningdek, mazkur model bo‘yicha o‘rganilgan ma’lumotlarga ko‘ra, ixtiyoriy ravishda to‘lanadigan to‘lovlar tizimi xaridorlarning har oyda to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirishga yordam beradi.

O‘zbekistonning hozirgi iqtisodiy sharoitida iste’mol bozorini kengaytirish uchun islomiy moliya vositalaridan foydalanish ayniqsa muhimdir. O‘zbekistonning iste’mol bozoridagi holat:

- 2024-yilda jami avtomobil sotuvlari 140 ming dona bo‘lib, shundan 18 mingta avtomobil islomiy moliyalashtirish orqali sotilgan (12,8%);⁴

- 72% o‘zbekistonliklar maishiy texnikani bir to‘lovda sotib olishga qodir emas, bu esa ular uchun islomiy moliya vositalarini qo‘llashni zarur qiladi.

Bundan tashqari, O‘zbekistondagi kredit stavkalari an’anaviy moliya tizimida juda yuqori, taxminan 27,9% bo‘lib, bu moliyaviy xizmatlardan foydalanishni qiyinlashtiradi.⁵ Shunday bo‘lsa-da, islomiy moliyalashtirish tizimi, an’anaviy kreditlar o‘rniga, foizsiz moliyaviy vositalar bilan bozorni faol rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Mazkur taklifni amalga oshirish orqali, bozor hajmini oshirish mumkin. Taklif qilingan tizim:

- Ijara muntahiya bit-tamlik asosida avtomobillar va maishiy texnikalarni sotish imkonini beradi, bu esa o‘z vaqtida to‘lovlar orqali xaridorlarga yengillik yaratadi;

- Boshlang‘ich to‘lovnari olib tashlash xaridorlar uchun qo‘srimcha xarajatlarni kamaytiradi va yuqori daromadli qatlamlardan farqli ravishda, o‘rta va past daromadli oilalarni jalb qiladi.

Agar boshlang‘ich to‘lovlar asosida ijara modelini joriy etish orqali bozor hajmini oshirishga erishilsa, bu quyidagi natijalarga olib keladi:

- O‘rtacha 2024-yilda avtomobillar sotilishi 140 ming dona bo‘lsa, yangi modelga asoslangan bo‘lsa, bu raqam ikki baravarga oshishi mumkin (2026-yilga kelib 280 ming);

- Shuningdek, maishiy texnikalarga bo‘lgan talab 25% ga oshishi, ya’ni barcha bozordagi sotuvlar hajmi yiliga 500 mlrd so‘mga ortishi kutilmoqda;

- Ijara asosidagi sotuvlarning ulushi 10% dan 25% ga ko‘payishi mumkin.

Xorijiy tajriba va islomiy moliyaviy vositalar yordamida O‘zbekistonning iste’mol bozorini rivojlantirishda katta imkoniyatlar mavjud. Ijara muntahiya bit-tamlik asosida avtomobil va maishiy texnikalarni sotish nafaqat bozor hajmini oshiradi, balki islomiy moliya vositalarini keng qo‘llash orqali kengroq ijtimoiy qatlamlarga moliyaviy xizmatlarni taqdim etadi. Bu esa o‘z navbatida iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. **2024-yil Iste’mol bozori ko‘rsatkichlari**. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2025. – 48 b.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. **Moliyaviy barqarorlik hisobotlari – 2024**. – Toshkent: Markaziy bank, 2025. – 64 b.

barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekistonda import bozorining samarali ishlashi, ayniqsa, tovarlar narxining barqarorligi uchun bojxona siyosatining ahamiyati juda katta. Import qilinadigan tovarlar uchun bojxona to'lovlari bozor narxlariga bevosita ta'sir qiladi. Agar import qilinadigan tovarlarning qiymati 1 milliard so'mni tashkil etsa va bojxona to'lovlari 15% ni tashkil etsa, quyidagi natijaga erishiladi:

$$\text{Bojxona to'lovlari} = 1,000,000,000 \times 0.15 = 150,000,000 \text{ so'm}$$

Bu yerda bojxona to'lovlari 150 million so'mni tashkil etadi, natijada import qilinadigan tovarning narxi 1,150,000,000 so'mga oshadi. Ushbu oshish importchilar uchun qo'shimcha xarajatlarni keltirib chiqaradi. Narxning oshishi esa iste'molchilar uchun mahsulotni arzon narxlarda sotib olish imkoniyatini cheklaydi. Shu sababli, bojxona to'lovlarning yuqori bo'lishi iste'molchilarni cheklaydi va bozor talabining pasayishiga olib keladi.

Bojxona to'lovlaridan ozod qilish, aksincha, import tovarlarining narxini pasaytiradi. Importchilarga bojxona to'lovlaridan ozod qilinishi, xarajatlarni kamaytirish va tovarlarni arzon narxda taqdim etish imkoniyatini yaratadi. O'zbekistonda bojxona imtiyozlarini taqdim etish importchilarning bozor talablari bilan to'g'ri keladigan narxlar bo'yicha mahsulotlarni taqdim etish imkoniyatini oshiradi, bu esa o'z navbatida bozorni barqarorlashtiradi. Shu tarzda, bojxona to'lovlarning pastligi import bozorining o'sishiga, narxlarning barqaror bo'lishiga yordam beradi.

Bojxona to'lovlaridan ozod qilishning iqtisodiy foydalari keng qamrovli tahlil qilishni talab etadi. Aytaylik, agar bojxona to'lovlari 20% bo'lsa va 1 milliard so'm qiymatidagi tovar import qilinsa, bojxona to'lovlari quyidagicha hisoblanadi:

$$\text{Bojxona to'lovlari} = 1,000,000,000 \times 0.20 = 200,000,000 \text{ so'm}$$

Bojxona to'lovlaridan ozod qilish importchilar uchun bu qo'shimcha xarajatlarni kamaytirish imkonini yaratadi va narxlar pasayadi. Shu bilan birga, bojxona to'lovlarning yuqori bo'lishi importchilarni qo'shimcha xarajatlarga majbur qiladi, bu esa natijada tovar narxlarining oshishiga olib keladi.

Misol uchun, agar bojxona to'lovlaridan ozod qilish orqali importchilarga 200 million so'm tejash imkoniyati yaratilsa, bu ularning tovari xarid qilish xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi va tovarlarni arzon narxda taklif qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, bojxona imtiyozlari berilmasa, importchilar yuqori xarajatlar bilan ishslashga majbur bo'lishadi, bu esa narxlarning oshishiga olib keladi va bozor barqarorligini buzadi.

Islomiy moliya vositalari, xususan Murobaha va Ijara, importchilarga qo'shimcha xarajatlarni kamaytirish va bozor narxlarini barqarorlashtirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonidagi iqtisodiyotning rivojlanishiga ta'sir etuvchi muhim

omillardan biri bu — Islomiy moliya vositalarini qo'llash. Bu vositalar orqali importchilar o‘z xarajatlarini samarali boshqarishlari mumkin.

Murobaha shartnomasida importchi tovarni belgilangan narxda sotib olib, unga foyda qo'shib sotadi. Bu usulda bojxona to‘lovlari va boshqa xarajatlar oldindan hisobga olinadi. Agar bojxona to‘lovlari 15% bo‘lsa, 1 milliard so‘mlik tovar uchun qo‘sishma xarajatlar 150 million so‘mni tashkil etadi. Importchilar bu xarajatlarni Murobaha shartnomasida belgilangan narxga kiritib, iste’molchilarga arzonroq narxda tovarlarni taqdim etishlari mumkin. Bojxona to‘lovlardan ozod qilish importchilarga qo‘sishma xarajatlarni kamaytirish va narxlarni pasaytirish imkonini beradi.

Misol uchun, agar importchi bojxona to‘lovlardan ozod qilinsa, 1 milliard so‘mlik tovar uchun 150 million so‘mni tejash mumkin bo‘ladi, bu esa importchi uchun moliyaviy yukni sezilarli darajada kamaytiradi.

Ijara shartnomasida importchi tovarni ijaraga berish orqali o‘z xarajatlarni kamaytiradi. Bu shartnoma importchilarga katta moliyaviy yukni o‘zlariga qaramasdan, tovarlarni ijaraga berish orqali arzonlashtirish imkoniyatini yaratadi. Ijara shartnomasida importchilar yuqori xarajatlarni to‘lashdan qochishadi va bu tovar narxlarining arzonlashishiga olib keladi. Bojxona to‘lovlardan ozod qilish importchilar uchun bu jarayonni yanada samarali qiladi va bozorni barqarorlashtiradi. Shu tarzda, Islomiy moliya vositalari importchilarga o‘z xarajatlarni optimallashtirish va tovar narxlarini arzonlashtirishda yordam beradi.

Xorij tajribasida bojxona to‘lovlardan ozod qilish va Islomiy moliya vositalarini qo'llash orqali import tovarlarining narxlarini arzonlashtirish va bozorni barqarorlashtirishga erishilgan. Misol uchun, Malayziyada bojxona imtiyozlari 10% miqdorida taqdim etilib, bu importchilar uchun qo‘sishma xarajatlarni kamaytirish imkoniyatini yaratdi.⁶ Malayziya tajribasi O‘zbekistonda ham samarali qo‘llanilishi mumkin, chunki O‘zbekiston ham bojxona to‘lovlarni ozod qilish va Islomiy moliya vositalarini integratsiya qilish orqali import tovarlarining narxlarini pasaytirishi va bozorni barqarorlashtirishi mumkin.

Xorijda olingan tajriba shuni ko‘rsatadiki, bojxona imtiyozlarini taqdim etish va Islomiy moliya vositalarini qo'llash import bozoriga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday siyosat nafaqat importchilarni qo‘llab-quvvatlaydi, balki umumiy iqtisodiy o‘sishni ham rag’batlantiradi.

O‘zbekistonda bojxona to‘lovlarining yuqori bo‘lishi import tovarlarining narxini oshiradi va bozorning o‘sishiga salbiy ta’sir qiladi. Bojxona to‘lovlardan ozod qilish orqali importchilar o‘z xarajatlarini kamaytirishadi va tovar narxlarini pasaytirishadi. Islomiy moliya vositalari, xususan Murobaha va Ijara, bojxona to‘lovlardan ozod qilish orqali bozorni barqarorlashtirish va narxlarni arzonlashtirishga yordam beradi. Shu tarzda, bojxona imtiyozlarini taqdim etish va

⁶ Bank Negara Malaysia. Annual Report 2022: Islamic Finance Section. – Kuala Lumpur: BNM, 2023. – 90 b.

Islomiy moliya vositalarini qo'llash import bozorini qo'llab-quvvatlashga yordam beradi va narxlar barqarorligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Siddiqi, M.N.Islamic Banking:Theory and Practice.Jeddah: Islamic Research and Training Institute, 2001. – 123 b.
2. State Bank of Pakistan. Islamic Banking Bulletin – December 2022. – Karachi, 2023. – 28 b.
3. Financial Services Authority of Indonesia (OJK). Sharia Finance Development Report 2020. – Jakarta: OJK, 2021. – 75 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. 2024-yil Iste'mol bozori ko'rsatkichlari. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2025. – 48 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Moliyaviy barqarorlik hisobotlari – 2024. – Toshkent: Markaziy bank, 2025. – 64 b.
6. Bank Negara Malaysia. Annual Report 2022: Islamic Finance Section. – Kuala Lumpur: BNM, 2023. – 90 b.